

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING  
FARMONI**

**TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH SOHASIDA DAVLAT BOSHQARUVINI  
TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya sohaslarida tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, sohani xalqaro andozalarga moslashtirish, standartlardan keng foydalanish muhitini yaratish, muvofiqlikni baholash jarayonlariga zamonaviy uslublarni joriy qilish maqsadida:

1. O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi (keyingi o‘rinlarda — Texnik jihatdan tartibga solish agentligi) tashkil etilsin.

2. Belgilansinki, Texnik jihatdan tartibga solish agentligi:  
texnik jihatdan tartibga solish va metrologiya sohaslarida davlat siyosatini amalga oshiruvchi respublika davlat boshqaruvi organi hisoblanadi;

o‘z vakolatlari doirasida umummajburiy bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilishga haqli.

3. Shunday tartib o‘rnatilsinki, unga muvofiq:  
sanitariya-epidemiologik xulosasi majburiy tartibda olinishi lozim bo‘lgan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga nisbatan muvofiqlik sertifikatini olish ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi. Bunda, ushbu mahsulotlarni tayyorlovchilar (ishlab chiqaruvchilar), yetkazib beruvchilar va sotuvchilar ularning texnik reglamentlar va standartlar bilan belgilangan majburiy talablarga muvofiqligini ta‘minlash uchun javobgar hisoblanadi;

2021-yil 1-sentabrdan ayrim turdagi xavflilik darajasi yuqori bo‘lmagan mahsulotlarning muvofiqligini baholash muvofiqlikni deklaratsiyalash yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bunda, muvofiqlikni deklaratsiyalash texnik reglament talablari asosida mahsulotning to‘liq sinovlari o‘tkazilgandan so‘ng ijobiy sinov natijalariga ko‘ra tuziladigan sinov bayonnomalari asosida muvofiqlik sertifikati berilmagan holda amalga oshiriladi;

xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a‘zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiya qilingan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari — muvofiqlikni baholash organlariga milliy akkreditatsiyadan o‘tmagan holda, akkreditatsiya doirasi haqida “O‘zbekiston akkreditatsiya markazi” DKni xabardor qilib, muvofiqlikni baholashga doir ishlarni bajarishga ruxsat beriladi. Bunda, rasmiylashtirilgan muvofiqlikni baholash hujjatlarida ILAC/IAF tashkilotlarining tan olish belgilari ko‘rsatilishi va ushbu hujjatlar ularning rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishi muvofiqlikni baholash organlari tomonidan ta‘minlanishi shart.

4. Belgilansinki, 2021-yil 1-noyabrdan boshlab import qiluvchilarga qulaylik yaratish hamda ichki bozorga sifatli va xavfsiz mahsulotlarning kirib kelishini ta‘minlash maqsadida:

a) xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan ayrim turdagi mahsulotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazgandan so‘ng respublika hududiga erkin muomalaga chiqarish (jismoniy shaxslar tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun qonunchilik hujjatlarida belgilangan me‘yorlar doirasida olib kelingan mahsulotlar bundan mustasno) tartibi joriy etiladi. Bunda:

respublika hududiga olib kirilayotgan shu turdagi mahsulotlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar ushbu mahsulotlar bojxona hududiga kelishidan kamida 15 kun oldin bojxona elektron dasturiga joylashtirilishi shart;

mahsulotlarni “erkin muomalaga chiqarish” bojxona rejimiga o‘tkazish davlat bojxona xizmati organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblangan akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlari tomonidan rasmiylashtirilgan tegishli muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar asosida amalga oshiriladi;

b) xavflilik darajasi yuqori bo'lmagan ayrim turdagi mahsulotlarni O'zbekiston Respublikasining rezidenti hisoblangan akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash organlarida muvofiqlik sertifikatini (amal qilish muddatidan qat'i nazar) bir marta rasmiylashtirgan holda yigirma to'rt oy davomida import qilishga ruxsat etiladi. Bunda:

mazkur tartib muvofiqlik sertifikatida ko'rsatilgan aynan bir ishlab chiqaruvchining mahsulot turlariga nisbatan amal qiladi;

import qiluvchining mahsulotlar muvofiqligi to'g'risidagi deklaratsiyasi davlat bojxona xizmati organlari tomonidan mahsulotni "erkin muomalaga chiqarish" bojxona rejimiga o'tkazish uchun asos bo'ladi;

mazkur soddalashtirilgan tartibda olib kiriladigan tovarlarning texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini ta'minlash uchun ushbu tovarlarni olib kirayotgan tadbirkorlik subyektlari javobgar hisoblanadi;

v) respublikaga olib kelinadigan mahsulotlarning texnik reglamentlar, standartlar va qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga muvofiqligi ustidan nazorat Texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki uning tuzilmasidagi vakolatli tashkilot tomonidan xavf-xatarlar tahlili asosida amalga oshiriladi;

g) texnik reglamentlar, standartlar va qonun hujjatlari bilan belgilangan majburiy talablarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro'yxatini yuritish Texnik jihatdan tartibga solish agentligi yoki uning tuzilmasidagi vakolatli tashkilot tomonidan amalga oshiriladi. Bunda, ro'yxatga kiritilgan mahsulotlarni, ro'yxatga olingan kundan boshlab 6 oy muddatgacha ro'yxatdan chiqarish, nomuvofiq deb topilgan tegishli mahsulotni ishlab chiqaruvchi (uning rasmiy vakili) tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish, erkin muomalaga chiqarish taqiqlanadi.

5. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Texnik jihatdan tartibga solish agentligining:

tashkilot standartlari toifasiga kiruvchi standartlashtirishga doir normativ hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni bekor qilish;

vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralari tomonidan tashkilot standartlarini ekspertizadan o'tkazish ishlarini haq olmasdan amalga oshirish haqidagi takliflari ma'qullansin.

Bunda, tashkilot standartlarida belgilanadigan ko'rsatkichlar (talablar) O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan tegishli mahsulotlarga oid standartlar talablaridan past bo'lgan hollarda, ushbu tashkilot standartlariga asosan mahsulot muvofiqligini tasdiqlashga yo'l qo'yilmaydi.

6. Belgilab qo'yilsinki, mahalliy muvofiqlikni baholash organlarida mahsulotning xorijiy davlatlarning standartlariga muvofiqligini baholash uchun xorijiy davlatlar standartlarining O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi talab qilinmaydi.

7. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi 2021-yil 1-iyulga qadar texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni qabul qilish tartibini xalqaro talablar asosida soddalashtirish bo'yicha qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish haqida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

8. Yangi qabul qilinayotgan xalqaro standartlarni va texnik reglamentlarni joriy etish, qo'llash hamda texnik jihatdan tartibga solish talablariga rioya etilmagan holatlar yuzasidan kiritilgan taqdimnomalar korxonalar va tarmoq rahbarlarining oylik, choraklik va yillik rag'batlantirish mezonlarini shakllantirishda inobatga olinsin.

9. Texnik jihatdan tartibga solish agentligi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil bilan birgalikda ikki oy muddatda korxonalarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bilan qamrab olish darajasini 2021-yilda 20 foizga va 2022-yilda 40 foizga yetkazish bo'yicha chora-tadbirlarni tasdiqlasin.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son Farmoni bilan tasdiqlangan Eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Hukumat komissiyasi) etib qayta nomlansin.

Belgilansinki, Hukumat komissiyasining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari davlat organlari va tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

11. Hukumat komissiyasiga tashqi savdoni texnik jihatdan tartibga solish sohasida quyidagi vazifalar yuklatilsin:

xalqaro standartlarni va texnik reglamentlarni joriy etish, qo‘llash hamda texnik jihatdan tartibga solish talablariga rioya etish darajasidan kelib chiqqan holda, korxonalar va tarmoq rahbarlariga nisbatan rag‘batlantirish yoki intizomiy choralar ko‘rib borish;

texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligi tasdiqlanishi majburiy bo‘lgan mahsulotlar ro‘yxatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan ayrim turdagi mahsulotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini hamda bunday mahsulotlar ro‘yxatini tasdiqlash, ularga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish;

mahalliy korxonalarining xalqaro standartlarni xarid qilish va joriy etish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash tartibini tasdiqlash;

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning tashkiliy tuzilmasiga kiradigan idoraviy mansub tashkilotlar xodimlari uchun qo‘shimcha (mehnatga haq to‘lash tizimida nazarda tutilgan to‘lovlaridan tashqari) to‘lovlarni belgilash.

Hukumat komissiyasi yig‘ilishlarida texnik jihatdan tartibga solish tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar ijrosi har chorakda muhokama etib borilsin.

12. 2021-yil 1-sentabrdan boshlab texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlash va metrologiya sohalarida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun:

a) mahsulotlarga nisbatan qonunchilik hujjatlarida va texnik reglamentlarda belgilangan majburiy talablarga ishlab chiqaruvchi yoki olib kiruvchi tomonidan rioya etilmagan hollarda yuridik shaxslarga:

huquqbuzarlik ogohlantirishdan so‘ng birinchi marta sodir etilganda — realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 50 foizigacha miqdorda moliyaviy jarima;

ushbu huquqbuzarlik sodir etilgan kundan boshlab bir yil davomida takroran sodir etilganda — realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 100 foizigacha miqdorda moliyaviy jarima;

b) qonunchilik hujjatlari, texnik reglamentlar, standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning majburiy talablari, metrologiya, sertifikatlashtirish va muvofiqlikni baholash qoidalari buzilgan hollarda mansabdor shaxslarga:

huquqbuzarlik ogohlantirishdan so‘ng birinchi marta sodir etilganda — bazaviy hisoblash miqdorining 40 baravarigacha miqdorda ma‘muriy jarima;

shunday huquqbuzarlik uchun ma‘muriy jazo chorasini qo‘llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilganda — bazaviy hisoblash miqdorining 80 baravarigacha miqdorda ma‘muriy jarima ko‘rinishidagi ta‘sir choralari belgilansin.

Bunda, qonunchilik hujjatlari va texnik reglamentlarda belgilangan majburiy talablarga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar erkin muomaladan chiqarilishi va yo‘q qilinishi lozim. Moliyaviy jarimaning to‘lanishi mazkur talabning bajarilishidan ozod etmaydi.

Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Adliya vazirligi va Oliy sud bilan birgalikda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa qonunlarga mazkur banddan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalarni kiritish bo‘yicha qonun loyihasini Vazirlar Mahkamasiga kiritilsin.

13. 2021-yilda sifat milliy infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

14. Quyidagilar:

qurilish vaziri B. Zakirov zimmasiga — qurilish materiallari, qurilish industriyasi, shu jumladan loyihalash va konstruksiyalash bo‘yicha;

qishloq xo‘jaligi vaziri J. Xodjayev zimmasiga — qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi va melioratsiya texnikasi bo‘yicha;

Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi raisi A. Maksudov zimmasiga — tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof-muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta’sirlardan muhofaza qilish bo‘yicha;

Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi raisi B. Gulyamov zimmasiga — uskuna va buyumlarning sanoat va foydalanish xavfsizligi bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi majburiy talablarning bajarilishini, mahsulotlar xavfsizligini va muvofiqlikni tasdiqlashni tashkil etish hamda ta’minlash yuklansin.

15. Quyidagilarga:

investitsiyalar va tashqi savdo vazirining o‘rinbosarlari A. Voitov, L. Qudratov va B. Abidovga — texnik jihatdan tartibga solish sohasini xalqaro andozalar, shu jumladan Jahon savdo tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, Yevropa Ittifoqi va Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi amaliyoti asosida takomillashtirish uchun xorijiy hamkorlarni va investitsiyalarni jalb qilish yuzasidan;

Davlat bojxona qo‘mitasining raisi M. Azimovga — chegara bojxona postlarida nazorat tartibotlarini bajarishda sanitariya-epidemiologiya, fitosanitariya va veterinariya nazorati organlari faoliyatining samarali va operativ muvofiqlashtirilishini ta’minlash, mahsulotlarni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlovchi hujjatlar oldindan bojxona elektron dasturiga joylashtirilmagan mahsulotlarni respublika hududiga olib kirilishiga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan;

Texnik jihatdan tartibga solish agentligi bosh direktoriga — texnik jihatdan tartibga solish tizimi, shu jumladan qonunchilik, texnik reglamentlar va normativ hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazorati samaradorligini ta’minlash, shuningdek, tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarishda korxonalariga uslubiy va amaliy ko‘mak ko‘rsatish yuzasidan;

Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati boshlig‘i B. Yusupaliyevga — majburiy tartibda sanitariya-epidemiologik xulosasi olinishi lozim bo‘lgan oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ustidan samarali nazoratni ta’minlash, xavfli oziq-ovqat mahsulotlarini erkin muomalaga chiqarishning oldini olish bilan bog‘liq chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan shaxsiy javobgarlik yuklansin.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

17. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi manfaatdor idoralar bilan birgalikda:

bir hafta muddatda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori loyihasini kiritisin;

2021-yil 1-avgustga qadar xavflilik darajasi yuqori bo‘lgan ayrim turdagi mahsulotlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, xavflilik darajasi yuqori bo‘lmagan ayrim turdagi mahsulotlarni olib kirishda ularning muvofiqligini baholash, muvofiqlikni deklaratsiyalash, shuningdek, texnik reglamentlar va standartlar talablariga nomuvofiq deb topilgan mahsulotlar ro‘yxatini yuritish, ularni erkin muomaladan chiqarish va yo‘q qilish tartiblarini ishlab chiqsin va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga kiritisin;

2021-yil yakuniga qadar barcha tizim tashkilotlarida ISO 37001 xalqaro standartiga asosan, korrupsiyaga qarshi menejment tizimlarini joriy etish va sertifikatlashni ta’minlasin;

ikki oy muddatda qonunchilikka mazkur Farmondan kelib chiqadigan o‘zgartirish va qo‘shimchalar to‘g‘risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritisin.

18. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari S.U. Umurzakov zimmasiga yuklansin.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,  
2021-yil 2-iyun,  
PF-6240-son

**2021-yilda sifat milliy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha**

**“YO‘L XARITASI”**

<b>T/r</b>	<b>Chora-tadbirlar nomi</b>	<b>Amalga oshirish shakli</b>	<b>Ijro muddatlari</b>	<b>Kutilayotgan natija</b>	<b>Mas'ul ijrochilar</b>
<b>I. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish</b>					
1.	Milliy standartlashtirish tizimini jahon tajribasidan kelib chiqqan holda takomillashtirish.	<p>“Standartlashtirish to‘g‘risida”gi <b>Qonunning</b> yangi tahririni ishlab chiqish.</p> <p>Bunda: standartlarning majburiyigidan xalqaro darajada qo‘llanilib kelayotgan standartlarni qabul qilinishida manfaatdor tomonlarning konsensusiga erishish yo‘li bilan ixtiyoriylikka o‘tish; standartlashtirish tizimidagi manfaatdor tomonlarning o‘zaro munosabatlarini aniq belgilash; standartlarni ishlab chiqish va joriy etishda biznesning rolini oshirish; qonunchilikda qo‘llanilayotgan davlat va tashkilot standartlari tushunchalarini xalqaro darajada tan olingan tushunchalar bilan muvofiqlashtirish.</p>	2021-yil avgust	Milliy standartlashtirish sohasining huquqiy asosini takomillashtirish. Xalqaro talablarga moslashtirish, Jahon savdo tashkiloti normalariga muvofiqlashtirish.	“O‘zTTSA”, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ( <i>B. Abidov</i> ), vazirlik va idoralar
2.	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi faoliyat turlarini institutsional	<p>“<b>Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida</b>”gi va “<b>Muvofiqlikni</b></p>	2021-yil sentyabr	Milliy sifat infratuzilmasining huquqiy asosini takomillashtirish.	“O‘zTTSA”, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ( <i>B. Abidov</i> ), vazirlik va idoralar

<p>jihtadan takomillashtirish.</p>	<p><b>baholash to'g'risida</b>”gi Qonunlari normalarini o'z ichiga oluvchi “Texnik jihtadan tartibga solish to'g'risida”gi yangi Qonun loyihasini ishlab chiqish.  Bunda:  ixtiyoriy va majburiy standartlarga o'tish; muvofiqlikni baholashning majburiy va ixtiyoriy ravishda amalga oshirish muhitini yaratish;  texnik reglamentlarni ishlab chiqishda, mahsulotlar muvofiqligini baholashda xalqaro standartlardan foydalangan holda zarur bo'lgan sinov va o'lchov usullarini belgilovchi normativ hujjatlar ro'yxatini shakllantirish;  mahsulotlarga qo'llaniladigan majburiy talablarni faqatgina qonunchilikda va texnik reglamentlarda belgilash;  muvofiqlikni baholash sohasida xodim sifatida ishtirok uchun nomzod hisoblagan mutaxassislarni sertifikatlash tartibotini bekor qilish;  mahsulotlarga nisbatan qonunchilik va texnik</p>		<p>Texnik jihtadan tartibga solish sohasidagi faoliyat turlarini ruxsat berish tusidan bozor munosabatlariga asoslangan ixtiyoriy texnik omilkorlikni baholashga qaratilgan institutsional shaklga o'tish.</p>	
------------------------------------	---	--	--	--

		<p>reglamentlarda belgilangan majburiy talablarga ishlab chiqaruvchi va (yoki) importyor tomonidan rioya etmagan hollarda:</p> <p>huquqbuzarlik ogohlantirishdan soʻng birinchi marta sodir etilganda — realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 50 foizi miqdorida jarima solish koʻrinishidagi moliyaviy jazoni;</p> <p>ushbu huquqbuzarlik bir yil davomida takroran sodir etilganda — realizatsiya qilingan mahsulot qiymatining 100 foizi miqdorida jarima solish koʻrinishidagi moliyaviy jazoni qoʻllash.</p>			
3.	<p>Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish sohasidagi munosabatlarni xalqaro standartlardan kelib chiqqan holda takomillashtirish.</p>	<p>“Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiyadan oʻtkazish toʻgʻrisida”gi Qonuni loyihasini ishlab chiqish.</p> <p>Bunda: akkreditatsiya tizimidagi manfaatdor tomonlarning oʻzaro munosabatlarini aniq belgilash; akkreditatsiya faoliyatini muvofiqlikni baholashning boshqa turlaridan ajratish; muvofiqlikni baholash organlari tomonidan akkreditatsiya talablariga rioya</p>	2021-yil oktyabr	<p>Akkreditatsiya faoliyatining qonuniy asosini takomillashtirish, xalqaro talablarga moslashtirish, ILAC, IAF normalariga muvofiqlashtirish.</p>	<p>Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), vazirlik va idoralar</p>



		qoidalarini buzganlik uchun mas'ul xodimlarga nisbatan jazo choralari qo'llash.			
4.	Qonunchilikda vakolatli idoralarning vakolat doirasini Jahon savdo tashkilotining Savdodagi texnik to'siqlar (TBT WTO) hamda Sanitariya va fitosanitariya choralari (SPM WTO) to'g'risidagi Bitimlari normalaridan kelib chiqqan holda aniq belgilash.	1. Savdodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi Bitimi doirasida qamrab olinadigan mahsulot turlarini tasdiqlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish. 2. Sanitariya va fitosanitariya choralari to'g'risidagi Bitimi doirasida qamrab olinadigan mahsulot turlarini tasdiqlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritish.	2021-yil iyun	Mahsulotlar muvofiqligini baholash (sertifikatlash) tizimini xalqaro tajriba asosida takomillashtirish.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), "O'zTTSA", Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), Sog'liqni saqlash vazirligi (A. Xadjibayev), Davlat veterinariya qo'mitasi (B. Norqobilov), O'z davkarantin (I. Ergashev)
5.	Milliy texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi qonunchilikni Jahon savdo tashkiloti normalari bilan uyg'unlashtirish maqsadida "O'zTTSA"ga innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari bo'yicha maslahatchi sifatida xorijiy ekspertlarni jalb qilish.	1. Xorijiy mamlakatlar bilan muzokaralar o'tkazish orqali salohiyatli ekspertlarni aniqlash.	2021-yil iyul	Xalqaro talablarning tatbiq etilishini ta'minlash.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), "O'zTTSA"
		2. Xalqaro ekspertlar bilan uzoq muddatli hamkorlikni yo'lga qo'yish.	2021-yil sentyabr		
<b>II. Muvofiqlikni baholash (tasdiqlash) jarayonlarini takomillashtirish</b>					
6.	Xavf tahlili asosida sifatsiz mahsulotlarni nazorat qilish.	1. Xavfi yuqori bo'lgan mahsulotlar muvofiqligini baholash va davlat nazoratini o'tkazish yuzasidan tegishli normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish.	2021-yil sentyabr	Sifatsiz mahsulotlarni savdo rastalariga kelib tushishining oldini olish.	"O'zTTSA", vazirlik va idoralar



		<p>2. Xavf-xatarni tahlil etish elektron tizimi orqali sifatsiz mahsulotlarni aniqlash va savdo rastalaridan chiqarish choralarini ko'rish.</p> <p>3. Sinov laboratoriyalari va sertifikatlashtirish organlari faoliyatini tahlilka-tahlil asosida davlat nazoratini o'tkazish va muvofiqlikni baholash organlari reytingini yuritish.</p> <p>4. Davlat nazorati natijalariga muvofiq tegishli ta'sir choralar ko'rish, shu jumladan muvofiqlikni tasdiqlash hujjatlarini bekor qilish.</p>			
7.	Muvofiqlikni baholash tizimini xalqaro va EOII normalari bilan uyg'unlashtirish.	<p>1. Xalqaro va EOII amaliyotida qo'llaniladigan tartiblarni respublikada joriy qilish uchun xorijiy ekspertlar bilan chora-tadbir ishlab chiqish.</p>	2021-yil iyul	Muvofiqlikni baholash tizimini takomillashtirish.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), "O'zTTSA", vazirlik va idoralar
		<p>2. Mahsulotlarning muvofiqligini baholash tizimining mahsulotlarni sertifikatlash va muvofiqligini deklaratsiyalash, davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha umumiy tartib-taomillarini takomillashtirish choralarini ko'rish.</p>	2021-yil sentyabr		
<b>III. Standartlashtirish jarayonlarini takomillashtirish</b>					
8.	Amal qilishi tugatiladigan standartlar	1. Soha kesimida ma'nan eskirgan standartlarni xatlovdan o'tkazish.	2021-yil noyabr	Yangi standartlarni amaliyotga etish.	"O'zTTSA", vazirlik va idoralar

	ro'yxatini ishlab chiqish.	2. Amal qilishi to'xtatiladigan standartlar o'rniga xalqaro yoki uning talablari bilan uyg'unlashgan standartlarni qabul qilish.			
9.	Xalqaro ISO uslublarini amaliyotga kiritish.	1. Xalqaro ISO uslublarini xatlovdan o'tkazish va uning ro'yxatini shakllantirish. 2. Korxonalar (tashkilot, muassasa) ehtiyojlaridan kelib chiqib standartlarni qabul qilish. 3. Qabul qilingan standartlar to'g'risida manfaatdor vazirlik va idoralarni xabardor qilish.	2021-yil noyabr	Sinov laboratoriyalarini xalqaro uslublar yordamida modernizatsiyalash.	"O'zTTSA", vazirlik va idoralar
10.	Standartlashtirish sohasidagi normativ hujjatlarni xalqaro standartlar bilan yangilash.	Xalqaro elektrotexnika komissiyasi (MEK), Yevropa ittifoqi (EN), BMT YIK standartlarini, Codex Stan standartlarini xatlovini o'tkazish va qabul qilish. Bunda: ishlab chiqarish korxonalariga 2023-yil 1-yanvariga qadar o'tish muddatini belgilash va amaldagi standartlardan foydalanishga ruxsat berish.	2021-yil noyabr	Xalqaro standartlarni qabul qilish.	"O'zTTSA", vazirlik va idoralar
<b>IV. Xalqaro talablar asosida texnik reglamentlarni qabul qilishni jadallashtirish</b>					
11.	Mahsulotlar xavfsizligini tartibga soluvchi amaldagi texnik reglamentlarni EOII dagi 37 ta texnik reglamentlar bilan takomillashtirish.	2021-yilda loyihalari ishlab chiqiladigan 26 ta va qayta ko'rib chiqiladigan 11 ta umumiy texnik reglamentlarni reja-jadvaliga muvofiq vazirliklar va idoralar bilan birgalikda	2021-yil davomida (tarmoq jadvaliga muvofiq)	Tashqi bozorlarda to'laqonli ishtirok etish.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), "O'zTTSA"

		Vazirlar Mahkamasiga kiritish.			
12.	O'zbekiston Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomida ushbu tashkilotiga a'zo davlatlar bozorlarida to'laqonli ishtirok etish uchun milliy texnik tartibga solish me'yorlarini ularning talablariga moslashtirish bo'yicha ishlarni jadallashtirish.	<p>1. Texnik jihatdan tartibga solish, standartlash, metrologiya va muvofiqlikni baholash masalalari bo'yicha EOII hamda unga a'zo davlatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama muzokaralarni olib borish.</p> <p>2. Yevroosiyo iqtisodiy komissiyasi Kengashi hamda uning tegishli tarkibiy bo'linmalari bilan muloqot o'rnatish va tizimli tarzda alohida yo'nalishlar bo'yicha muhokamalar o'tkazib borish.</p>	kuzatuvchilik davri mobaynida	Milliy texnik tartibga solish me'yorlarini EOII talablariga moslashtirish.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi (I. Norqulov), "O'zTTSA"

#### V. Sinov bazasini rivojlantirish

13.	Mahalliy mahsulotlarning sifati va ularni xorijiy bozorlardagi raqobatdoshligini ta'minlashda tarmoqlar kesimida sinov laboratoriyalarini tashkil etish.	<p>1. Qabul qilinadigan texnik reglamentlar talablariga muvofiq o'lchash va sinov uskunalarini ro'yxatini tuzish.</p> <p>2. Sinov laboratoriyalarini tashkil etish bo'yicha tarmoq dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash.</p>	2021-yil iyul	Mahalliy mahsulotlarni eksport qilishda ishlab chiqaruvchilar tomonidan doimiy nazoratni ta'minlash.	"O'zTTSA", vazirlik va idoralar
14.	Namangan shahridagi "Yuksalish" kichik sanoat zonasi hududida xalqaro talablar asosida mahsulotlarning muvofiqligini baholash sinov laboratoriyalarini kompleksini tashkil etish.	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2-iyuldagi PQ-3826-son va 2020-yil 14-iyuldagi PQ-4782-son qarorlariga asosan "Yuksalish" kichik sanoat zonasi hududida mahsulotlarni xalqaro talablar asosida sinov	2021-yil iyul	Namangan viloyati "Yuksalish" kichik sanoat zonasida polimer, yengil sanoat, elektr texnikasi, kimyo va qurilish mahsulotlarini xalqaro talablar asosida sinov laboratoriyasini moliyalashtirish.	Namangan viloyati hokimligi (Sh. Abdurazakov), "O'zTTSA"

		o'tkazadigan laboratoriyalar kompleksini tashkil etish maqsadida "O'zTTSA" Standartlar institutiga 5 million AQSh dollari miqdoridagi mablag'ni ajratish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-noyabrda 488-F-sonli farmoyishi bilan tashkil etilgan Namangan viloyatiga kichik sanoat zonalari faoliyatini yanada rivojlantirish uchun ajratilgan mablag'lardan foydalanish bo'yicha Idoralararo kengashining qarorini qabul qilish.			
<b>VII. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish</b>					
15.	Muvofiqlikni baholash sohasida inson omilini qisqartirish, sertifikatlash organlari va sinov laboratoriyalari faoliyatini o'zaro bog'lashni va to'liq raqamlashtirishni nazarda tutuvchi maxsus axborot tizimini ishga tushirish.	<p>1. Maxsus axborot tizimining loyahasini ishlab chiqish hamda tizimga sertifikatlash organlari va sinov laboratoriyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish.</p> <p>2. Maxsus axborot tizimini bosqichma-bosqich sinov tariqasida ishga tushirish, aprotatsiya qilish va yuzaga keladigan kamchiliklarni bartaraf etish.</p> <p>3. Maxsus axborot tizimini to'liq amaliyotga joriy qilish.</p>	2021-yil sentyabr	Sertifikatlash idoralari va sinov laboratoriyalari faoliyatini raqamlashtirish hamda ular o'rtasida hujjat almashinuvini to'liq elektron shaklga o'tkazish.	"O'zTTSA", Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Pekos), akkreditatsiya qilingan muvofiqlikni baholash idoralari
16.	Texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi faoliyat	1. Akkreditatsiya yo'nalishida "E-akkreditatsiya"	2021-yil sentyabr	Tizimga IT dasturlarini joriy etish.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov),

	turlarini raqamlashtirish.	axborot tizimini joriy qilish. 2. Standartlarni raqamlashtirish bo'yicha "E-Standard" axborot tizimini joriy qilish. 3. Metrologik xizmatlarni avtomatlashtirish bo'yicha "E-Metrologiya" axborot tizimini joriy qilish.			"O'zTTSA", Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Pekos), vazirlik va idoralar
17.	Standartlashtirish sohasidagi normativ hujjatlarning yillik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish amaliyotidan voz kechgan holda, ularning amaldagi tahriridan shartnoma asosida "onlayn" tarzda foydalanish imkonini yaratish.	Standartlar institutining rasmiy veb-sayti orqali standartlarni aniqlash, aktuallashtirish va olish imkoniyatini beruvchi (Electron fond) interaktiv xizmatlar portalini ishga tushirish	2021-yil sentyabr	Standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarni "onlayn" rejimda manfaatdor tomonlarga yetkazish.	"O'zTTSA", Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (O. Pekos)
18.	Respublikada qo'llanilayotgan o'lchash vositalarining yagona idoralararo ma'lumot almashish elektron platformasini yaratish.	1. Elektron tizimni loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish hamda belgilangan tartibda vakolatli organlardan ekspertizadan o'tkazish. 2. Elektron tizimni ishlab chiqish hamda keyinchalik qo'llab-quvvatlash bilan bog'liq xarajatlarni O'zbekiston Milliy metrologiya instituti mablag'lari hisobidan amalga oshirish.	2021-yil sentyabr	Tashkilotlar tomonidan qo'llanilayotgan barcha turdagi o'lchash vositalari to'g'risida yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish.	"O'zTTSA", vazirlik va idoralar
<b>VIII. Akkreditatsiya jarayonlarini takomillashtirish</b>					
19.	Sinov laboratoriyalarini baholashda Xalqaro laboratoriyalarni akkreditatsiya qilish hamkorligi (ILAC) tomonidan foydalanilayotgan	1. Akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalarini 2021-yilda davriy baholash (inspeksiya nazorati) reja-jadvalini ishlab chiqish.	2021-yil iyun	Mahalliy laboratoriyaning xalqaro standartga muvofiq faoliyat yuritishini ta'minlash.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), akkreditatsiya qilingan sinov laboratoriyalar

	va amalda bo'lgan xalqaro standartlarning qo'llanilishini ta'minlash.	2. Sinov laboratoriyalarini xalqaro ISO/IEC 17025:2017 standarti talablari asosida davriy baholashdan o'tkazish hamda standart talablariga muvofiq kelmagan laboratoriyalarning akkreditatsiya guvohnomalarini amal qilish muddatini to'xtatib turish.	reja-jadvalga asosan		
20.	Muvofiqlikni baholash organlari tomonidan milliy akkreditatsiya tizimi belgisini qo'llash munosabatlarini tartibga solish.	Muvofiqlikni baholash organlari tomonidan akkreditatsiya tizimi belgisini qo'llaganlik uchun akkreditatsiya sohasida ko'rsatilgan pullik xizmatlar tushumning 5 foizi miqdorida ajratma o'tkazish tartibini belgilovchi idoraviy normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va tasdiqlash.	2021-yil iyul	Milliy akkreditatsiya idorasi faoliyati xolisligi, betarafligi va shaffoqligini hamda xalqaro tashkilotlarda ishtirokini ta'minlash.	Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov), Moliya vazirligi (D. Sultanov), Adliya vazirligi (A. Karimov)
<b>IX. Sifat menejment tizimlarini joriy etish</b>					
21.	Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida "Global GAP" va "Organik" standartlarini joriy etish.	1. "Global GAP" va "Organik" standartlar talablari to'g'risida mahalliy mutaxassislarning (agronomlarning) zarur malaka va ko'nikmalarini Standartlar institutida amalga oshirishga qaratilgan tadbirlarni (seminarlar, taqdimotlar, o'quv kurslari va h.k.) reja-jadvalini ishlab chiqish.	2021-yil iyun	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish.	Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A. Xaitov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari
		2. "Global GAP" va "Organik" standartlar talablari to'g'risida mahalliy mutaxassislarning	reja-jadval asosida		

		(agronomlarning) zarur malaka va ko'nikmalarini Standartlar institutida amalga oshirish.			
		3. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi tashkilot va fermer xo'jaliklariga Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish maqsadida zarur hujjatlar to'plamini taqdim etishda konsultativ yordam ko'rsatish.	Doimiy		Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov)
		4. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiluvchi tashkilotlar va fermer xo'jaliklariga Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan moliyaviy yordam ko'rsatish.	Doimiy		Qishloq xo'jaligi vazirligi (J. Xodjayev), "O'zTTSA", O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi (A. Xaitov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari
		5. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlar va yetishtiruvchi fermer xo'jaliklarida "Global GAP" va "Organik" standartlarini joriy etish va sertifikatlash.	Ro'z ja-jadval asosida		
<b>X. Kadrlar salohiyatini oshirish va islohotlarni jamoatchilikka yetkazish</b>					
22.	Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash sohasida kadrlarni tayyorlash, ularning kompetentligini	Texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, metrologiya, muvofiqlikni baholash sohasida xorijiy ekspertlar yordamida milliy trenyerlarni	2021-yil iyun	Sohada xorijiy ekspertlar yordamida milliy trenyerlarni yetishtirish, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish.	"O'zTTSA", Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi (A. Toshqulov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (B. Abidov)



	<p>oshirish hamda faoliyatini xalqaro talablar asosida tashkil etish.</p>	<p>tayyorlash, muvofiqlikni baholash sohasida, shu jumladan sinov laboratoriyalarini yangi xalqaro standartlarga transformatsiya qilishda mutaxassislar kompetentligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar rejasini oliy ta'lim muassasalari bilan birgalikda ishlab chiqish.</p> <p>Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>oliy ta'lim muassasalari uchun sohada joriy qilinayotgan texnik reglamentlar va xalqaro standartlar hamda tizimli o'zgarishlar borasida tajriba almashish kurslarini tashkil etish;</li> <li>oliy ta'lim muassasalarini standartlashtirish sohasidagi o'quv darsliklari va adabiyotlarini birgalikda qayta ko'rib chiqish;</li> </ul> <p>2021-yildan boshlab oliy ta'lim muassasalarining standartlashtirish yo'nalishlarida Milliy metrologiya instituti va Standartlar instituti xodimlari tomonidan sohaga oid darslarni o'tish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p>			
23.	<p>Milliy sifat infratuzilmasining mazmun-mohiyatini</p>	<p>1. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar</p>	<p>Doimiy</p>	<p>Milliy sifat infratuzilmasi mazmun-mohiyatini</p>	<p>O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi (A. Xodjayev),</p>

	<p>keng jamoatchilikka yetkazish bo'yicha sohaga doir teleradiokanallar, bosma ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda olib borilayotgan ishlarni keng yoritish.</p>	<p>agentligi, O'zbekiston milliy matbuot markazi, "Yuksalish" umummilliy harakati bilan hamkorlikda ommaviy axborot vositalari xodimlari uchun sohadagi dolzarb vazifalar, tezkor yangiliklari yuzasidan tizimli ravishda matbuot anjumanlarini tashkil etish, nodavlat notijorat tashkilotlari, blogyerlar bilan ishlash, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarda keng muhokamalarni yo'lga qo'yish.</p> <p>2. "Mening fikrim" portalida sohani rivojlantirishga qaratilgan takliflarni berib borish.</p> <p>3. Ijtimoiy roliklar tayyorlash, "Ochiq eshiklar kuni" va OAV xodimlari uchun media turlarni o'tkazish va sohada erishilgan natijalarni infografikalar yordamida jamoatchilikka yetkazish.</p>		<p>keng jamoatchilikka yetkazish.</p>	<p>O'zbekiston milliy axborot agentligi (A. Ko'chimov), O'zbekiston elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi (F. Abduxalikov), "O'zTTSA"</p>
--	--	---	--	---------------------------------------	--

Izoh: "Yo'l xaritasi"da ko'zda tutilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ishlab chiqilayotgan hujjat shakli o'zgartirilishi yoki ishlab chiqilayotgan hujjat boshqa bandlarda ko'zda tutilgan hujjatlar bilan birlashtirilishi mumkin. Ikki va undan ortiq hujjatlarning birlashtirilishida tegishli bandlar bajarilishi uchun belgilangan eng oxirgi muddat ishlab chiqish muddati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyundagi PF-6240-son Farmoniga  
2-ILOVA

### **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim farmonlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 5-oktabrdagi "Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-4848-son Farmoni 6-bandining **uchinchi xatboshisi** quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi amaldagi normativ hujjatlardan xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan tuzilgan bitimlar hamda qoidalar doirasida foydalanish maqsadida ularni jahon Internet axborot tarmog‘idagi o‘z rasmiy veb-saytlarida joylashtirilishini va doimiy yangilab borilishini ta‘minlasinlar”.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-iyuldagi PF-5490-son Farmoni bilan tasdiqlangan Tekshiruvlarni elektron ro‘yxatga olish yagona tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish orqali vakolatli organni xabardor etish tartibida o‘tkaziladigan tekshiruvlar **ro‘yxati** quyidagi mazmundagi 33-pozitsiya bilan to‘ldirilsin:

“

33.	O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va uning Davlat nazorati departamenti vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha tekshiruvlar.	O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi	10 kundan oshmagan holda
-----	--	---	--------------------------

”.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi “Respublikada eksport va investitsiya salohiyatini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6042-son Farmoni **4-bandi**:

quyidagi mazmundagi to‘rtinchi xatboshi bilan to‘ldirilsin:

“hududlardagi erkin iqtisodiy zonalar direksiyalarining direktorlarini lavozimga tayinlash va lavozimidan ozod qilish”;

**to‘rtinchi** va **beshinchi xatboshilar** tegishincha beshinchi va oltinchi xatboshilar deb hisoblansin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-oktabrdagi PF-6096-son Farmoni bilan tasdiqlangan Xususiylashtirishdan oldin tayyorlash va investitsiyaviy jozibadorligini oshirish orqali ommaviy savdolarda to‘liqligicha davlat aksiya paketlari (ulushlari) sotiladigan korxonalar **ro‘yxatining** 26-pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

*(Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 03.06.2021-y., 06/21/6240/0514-son)*



## ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FARMONI

2021 уй « 2 » июня

№ УП–6240

### **О кардинальном совершенствовании государственного управления в области технического регулирования**

В целях дальнейшего углубления структурных преобразований в областях технического регулирования, стандартизации, сертификации и метрологии, их адаптации к международным стандартам, создания среды широкого применения стандартов, а также внедрения современных методов в процессы оценки соответствия:

1. Образовать **Узбекское агентство по техническому регулированию при Министерстве инвестиций и внешней торговли Республики Узбекистан** (далее – Агентство по техническому регулированию) на базе Узбекского агентства стандартизации, метрологии и сертификации.

2. Определить, что Агентство по техническому регулированию:

является республиканским органом государственного управления по реализации государственной политики в области технического регулирования и метрологии;

вправе принимать общеобязательные нормативно-правовые акты в рамках своей компетенции.

3. Установить порядок, в соответствии с которым:

получение сертификата соответствия на продовольственную и сельскохозяйственную продукцию, требующую в обязательном порядке получения санитарно-эпидемиологического заключения, **осуществляется на добровольной основе**. При этом изготовители (производители), поставщики и продавцы данной продукции **являются ответственными** за обеспечение ее соответствия обязательным требованиям, установленным техническими регламентами и стандартами;

**начиная с 1 сентября 2021 года** оценка соответствия отдельных видов продукции с низким уровнем риска проводится путем **декларирования соответствия**. При этом декларирование соответствия проводится **без выдачи сертификата соответствия** на основании протоколов испытаний, составляемых по результатам положительных испытаний после проведения полноценных испытаний продукции на основе требований технического регламента;

